

ALOE(ALOE ARBORESCENS) O‘SIMLIGINI YETISHTIRISH VA UNDAN EKSTRAKT AJRATIB OLISH

Xusanova Charos Otabek qizi

O‘zbekiston Milliy Universiteti Jizzax filiali Biotexnologiya yo‘nalishi 3 -
bosqich talabasi

Sobirova Muqaddas Botirovna

Mirzo Ulug bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Unversiteti Jizzax filiali
Biotexnologiya kafedrasi biologiya fanlari nomzodi, PhD

Annotatsiya: Ushbu tezisda Aloe(Aloe arborescens) o‘simligini yetishtirish,botanik tasnifi,ishlatilish sohalari hamda sersuv bargidan tayyorlangan ekstrakt ajratib olinganligi haqida ma’lumotlar keltirilgan.Asosan bu o‘simlikning sersuv barglaridan tayyorlangan ekstrakt me’da va ichakning ba’zi kasalliklari,o‘pka sili bronxial astma,yallig’lanish va boshqa bir qancha kasalliklarni davolashda keng ishlatiladi.

Kalit so‘zlar: Aloe (Aloe arborescens),aloin,izobarbolin,efir moyi,aloe-emodin,etil spirit,sabur,konservatsiya,defteriya,stafilokok.

Kirish: Aloe — loladoshlar oilasiga mansub doim yashil, ko‘p yillik o‘tlar (ba’zan daraxtlar) turkumi. Tropik va subtropik mintaqalarda o‘sadi. Qariyb 180 turi ma’lum. Aloe turlari gultuvakda ham o‘stiriladi; ularning bargi semiz, sersuv, qalin va tikanli. Aloe bargidan olinib quritiladigan shira — sabur surgu sifatida, kuygan terini, gastritni davolashda ishlatiladi. Aloening bargidan olinib konservatsiya qilingan biostimulyatorlarga boy ekstrakt dori vosita sifatid a teri ostiga yuboriladi.



Aloe (Aloe arborescens)

Kimyoviy tarkibi. Antrakinon birikmalari:aloin, aloe-emodin, aloe-xrizofanol, aloe saponinlar va aloenin. Aloe mustahkamligini oshiruvchi tarkibida faol moddalar bo‘lgan va asosan aloe barglarining tashqi terisida mavjud bo‘lgan o‘nlab turdagi aloe vera, aloemitsin, postmonat aloin va boshqalar mavjud. Aloe polisaxaridlari asosan aloe barglari jelida, ya'ni barg terisi bilan o‘ralgan shaffof yopishqoq qismida bo‘ladi. Hozirgacha etoksilatlangan glyukan, glyukomannan, arabino-galaktan va boshqalar ajratilgan. Aloe polisaxaridlarining molekulyar tuzilishi, tarkibi va nisbiy molekulyar og‘irligi aloeining xilma -xilligi, o‘shish muhiti va o‘shish davri bilan bog‘liq.

Dorivorlik xususiyati. Aloe tibbiyotning deyarli barcha sohalarida qo'llaniladi. Uning xususiyatlari: dermatologiya, oftalmologiya, gastroentologiya, va stomatologiyada foydalaniladi. Gastroentologiyada ich qotishini yo'qotadi, ovqat hazm qilishni yaxshilaydi, oshqozon shilliq qavatini tiklaydi, oshqozon va o'n ikki barmoqli ichak yarasini davolaydi. Aloe sharbatidan gastrit, enterokolit, kolit, gastroenteritda qo'llaniladi. Dermatologiyada qo'llanilishi: Aloe bakteritsid yallig'lanishga qarshi antioksidant va yaralarni davolovchi xususiyatga ega. Aloe o'simligidan tayyorlangan jelidan ko'zlar ostidagi shishni, sovuqdan terining shikastlanishida foydalaniladi.

Ekstrakt ajratib olish: Aloedan 2 xil ekstrakt ajratib olindi.

1. Suvdagi ekstrakti: Aloe o'simligining sersuv barglari tozalaniladi. Sersuv barglarini dastlab suvda saqlandi 1 kun, keyin undan geli ajratib olindi.

2. Spirdagi ekstrakti: Dastlab aloe barglarini o'simligidan ajratib olindi, keyin yaxshilab yuvildi va tabiiy ravishda quyosh nurida quritildi 1 kun vaqt mobaynida, 2 kun aloeni sersuv barglaridan chetki qismidagi tikonlari tozalandi va barglari mayda bo'laklarga maydalandi. Etil spirti solingan idishiga solindi va 1 kecha kunduzga xona xaroratida qorong'u xonada saqlandi.

Xulosa. Aloe o'simligi birinchi navbatda manzarali, shifobaxsh, foydali o'simlik xisoblanadi. Aloe ekstrakti noyob komponent hisoblanib antioksidant, antibakterial, qayta tiklash va antiallergik xususiyatlarga ega. Aloe ekstrakti limfani tozalaydi, qon aylanishni yaxshilaydi shuningdek kislorodni organlarga tashilishini tezlashtiradi, yurak va miya salomatligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ataboyeva X.N, Xudayqulov J.B, O'simlikshunoslik. Toshkent 2018.
2. Xolmatov H.X, Ahmedov O'.A, Farmakognoziya. Toshkent 1995.
3. Jo'rayeva M.A. Dorivor o'simliklar atlas (o'quv qo'llanma) Toshkent. 2019.
4. Xolmatov X.X, Axmedov U.A. Farmakognoziya 1-qism Toshkent 2007. 408-bet.
5. Xolmatov X.X, Axmedov U.A. Farmakognoziya. 2-qism. Toshkent. 2007. 400-bet.
6. Pulatova T.P, Xolmatov X.X. Farmakognoziya amaliyoti Toshkent Abu Ali Ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti, 2002 360-bet.